Jinoyat va jazo turlari haqida zamonaviy prinsplar

Abdurasulova Sabrina Sanjar qizi
Termiz davlat universititi Yuridik fakulteti talabasi

Po'latov Bahodir Abdunazarovich
Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Davlat va huquq nazariyasi va tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Jazo choralari jinoyatchilikka qarshi kurashda, jamiyatni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Jazo Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normasida javobgarlik belgilangan, sodir etilgan jinoyatning huquqqa xiloflilik belgisidir. Jinoyat va jazo tushunchalarining o‘zaro bog‘liqliligi sodir etilgan jinoyatga nisbatan qo‘llaniladigan qonuniylik va ayb uchun javobgarlik prinsiplarida ifodalanadi.

Kalit so’zlar

Jinoyat, jazo, sudlanuvchi, javobgar, huquq, ozodlikdan mahrum qilish, shaxs, jarima, intizomiy qismga jo‘natish, majburiy jamoat ishlari.

Abstract

Penal crime serves as a means of combating crime and protecting society from criminal aggression. Punishment In the norms of the criminal legal special part, injury is a sign of illegality of the committed crime. The interdependence of crimes and punishments is expressed in the situation and the principle of responsibility for the committed crime.

Key words

Crime, punishment, defendant, security, law, deprivation of liberty, personal fine, sending to the disciplinary unit, effective teamwork.

Аннотация

Карательные меры служат средством борьбы с преступностью и защиты общества от преступной агрессии. Наказание – это признак противоправности совершенного преступления, который определяется в нормах Особенной части УК РФ. Взаимообусловленность понятий преступление и наказание выражается в принципах законности и ответственности за вину, применяемых к совершенному преступлению.

Ключевые слова

Преступление, наказание, подсудимый, подсудимый, право, лишение свободы, лицо, штраф, направление в дисциплинарную часть, обязательные работы.

Jazo — sud hukmi bilan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan va sudlanuvchini ozodlikdan mahrum qiluvchi yoki uning huquq va erkinliklarini cheklovchi majburlov chorasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazoga:

Jazo bu – jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat tomonidan sud hukmi asosida qo‘llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va

erkinlik-lardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir, deb ta'rif berilgan.

Jinoyat qonunini qo'llashda: jinoiy javobgarlik nimaga asoslanadi va nima uchun jazo tayinlanadi hamda belgilanadigan jazo chorasining miqdori nimaga bog'liq va aybdor qanday jazolanishi kerak, degan savollarga javob topish muhimdir.

Jinoyat huquqi funksiyasini amalga oshirishda jinoiy jazoning ahamiyati katta ekanligini qayd etish lozim.

Ba'zi funksiyalar faqat jinoyat huquqiga xos bo'lib, ularga: qo'riqlovchi va ijtimoiy-majburlov funksiyalari kiradi. Jinoyat huquqi va jinoiy jazo yuqoridagi funksiyalar orqali o'zaro bog'liq. Jinoiy jazo ijtimoiy-majburlov, ya'ni jinoyatni umumiy va maxsus ogohlantirish funksiyasini amalga oshiradi.

Jinoyat huquqida jinoiy javobgarlikdan farqli ravishda jinoiy jazo masalasi aniqroq ochib berilgan. Bu masala jinoyat huquqiga oid darsliklarda va jinoyat huquqi kurslarida to'liq yoritilgan.

A.I.Chuchayevning fikricha jinoiy jazo bu – jinoyat qonunida belgilangan va shaxsni ozodlikdan mahrum qiluvchi, uning huquq va erkinliklarini cheklovchi davlat majburlov chorasi; jazo jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi, sud hukmi asosida davlat nomidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi 1994-yilgi Jinoyat kodeksida qonuniylik prinsipidan kelib chiqib, qilmishning jinoiyligi, uning jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlar faqat Jinoyat qonunida belgilanishi mumkinligi mustahkamlangan.

Jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi bo'lib, u boshqa majburlov choralaridan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi:

1) ***Jinoiy jazo jinoyat qonunida qat'i belgilangan bo'ladi.***
2) ***Jinoiy jazo faqat sud tomonidan tayinlanadi.***
3) ***Jinoiy jazo faqat jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatangina qo'llaniladi.***;
4) ***Jinoy jazoning mazmuni shaxsni ozodlikdan mahrum qilish-da yoki huquq va erkinliklarini cheklashda ifodalanadi.***.
5) Jinoiy jazoning davlat xususiyatiga ega ekanligi.
6) ***Sudlanganlik shaxsning faqat jinoiy jazoga tortilganligi tufayli kelib chiqadi***.
7) ***Jazo bu – jinoyat sodir etgan shaxsni sodir etgan qilmishi uchun jazolashdir.***
8) ***Jinoiy jazoning vazifasi faqatgina sodir etilgan qilmish uchun jazolash bo'lmay, shuningdek, mahkumlarni tuzatish va qayta tarbiyalash hamdir.***

Jinoiy jazo davlat majburlovining alohida shakli sifatida yuridik adabiyotlarda huquqiy kategoriya sifatida baholanadi. Jinoiy jazo o'z mazmuni, funksiyasi, xususiyati va ta'sir qiluvchi obyektiga ko'ra, jazo tayinlash jazoni ijro etish va jazodan ozod qilish jarayonida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan kengroq hisoblanadi. Jinoiy jazo jinoyatchi shaxsi, jamiyatning boshqa a'zolari va jamiyatning o'ziga ta'sir qilishi bilan bog'liq bo'lgan majburlov choralarining jamidir. Bu davlatning jinoyatchilikka qarshi siyosatini rejalashtirish va amalga oshirish, jinoyat va jinoyat-ijroiya qonuni talablarini bajarish imkonini beradi. Jinoiy jazoni ijtimoiy kategoriya sifatida o'rganishning muhim muammosi, uning ijtimoiy funksiyasi hisoblanadi. Jazoning muhim funksiyalaridan biri – jinoyat sodir etgan shaxsni unga nisbatan jazoni qo'llash orqali uni ogohlantirishdir.

Jinoiy jazo umumiy va maxsus ijtimoiy nazorat funksiyasini amalga oshiradi. Ijtimoiy nazoratning samaradorligi jazoni jinoyatchilikka qarshi kurash vositasi sifatida qo‘llanishiga, ko‘pincha ijtimoiy o‘zgarishlarning qonunchilikda aks ettirilishiga va ijro etilishiga bog‘liqdir.

Jazoning maqsadini belgilash – jinoyat huquqining muhim masalalaridan biri. Uning hal qilinishiga nafaqat shu huquq sohasining institutlari, balki jinoyat qonuni normalarining qanday maqsadlarda qo‘llanishiga ham bog‘liqdir.

Ch. Bekaria «Jazoning maqsadi insonni azoblash va sodir etilgan jinoyatni bartaraf etish emas. Jazoning maqsadi shaxsni jamiyatga qayta zarar yetkazmaslik ruhida tarbiyalash va boshqalar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishdan iborat», deb yozadi. [1]

N.S.Tagansev, jazoning maqsadini belgilab, «Aybdorga u tomonidan sodir etilgan harakat uchun qo‘llaniladigan jazo chorasi shunday bo‘lishi kerakki, u davlat tomonidan jazolashdan ko‘zlangan maqsadlar uchun xizmat qilsin», deydi.[2]

Jazoning maqsadidan ushbu maqsadga erishish yo‘lida muayyan masalalarni hal qiluvchi, oraliq natijalarga erishuvchi jazoning funksiyasini farqlash lozim. Jazoning maqsadi va tushunchalari funksiyalarini farqlamaslik holatlari yuridik adabiyotlarda uchrab turadi. Bu nafaqat u yoki bu, balki, jazoni ijtimoiy jihatdan tayinlash, jinoiy jazo siyosatini belgilab olish uchun halaqit beradi. Masalan, jazoning maqsadi sifatida jazolashning o‘zini belgilash.

Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazoning:

1) mahkumni axloqan tuzatish;
2) shaxsning jinoiy faoliyatiga to‘sqinlik qilish;
3) boshqa shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish kabi maqsadlari belgilab qo‘yilgan.

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to‘sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi.

Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy jazolar qo‘llanilishi mumkin:

a) jarima;

b) muayyan huquqdan mahrum qilish;

b) majburiy jamoat ishlari;

v) axloq tuzatish ishlari;

g) xizmat bo‘yicha cheklash;

d) ozodlikni cheklash;

e) intizomiy qismga jo‘natish;

j) ozodlikdan mahrum qilish;

z) umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

Jinoyat tushunchasi jinoyat huquqi fanining predmetini tashkil etuvchi xususiyatlaridan biri hisoblanadi. “Jinoyat” tushunchasiga jinoyat-huquqiy ta’rif birinchi bor 1791-yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida berilgan bo‘lib, ushbu ta’rif formal tusga ega edi. Unda jinoyatga: “Jinoyat bu – amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir”,-deya ta’rif berilgan edi.

Jinoyat bu – ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2-moddasida ko‘rsatil-gan vazifalarni amalga oshirish maqsadida jinoyat tushunchasi belgilab qo‘ygan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasi aniq belgilangan bo‘lib, *14-moddaning 1-qismiga ko‘ra*, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. ***Jinoyat*** – shaxsning jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ma’lum bir shakldagi xatti-harakati hisoblanadi. *Jinoyat tushunchasi* harakat yoki harakatsizlik shaklidagi shaxs-ning xulq-atvori (xatti-harakati, faoliyati)ni ifodalaydi. Shu bilan bir-ga, jinoyat qonunida ruhiy jarayonlar, o‘ylar, fikriy xulosalar qancha-lik zarar keltiruvchi bo‘lishiga qaramay, jinoyat hisoblanmasligi belgilab qo‘yilgan. Jinoyatga moddiy tushuncha berish g‘oyat muhim bo‘lib, bu nafaqat jinoyat huquqining o‘ziga, balki jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya huquqi, kriminalistika, kriminologiya va boshqa huquqiy fanlar uchun ham zarurdir.

Jinoyat – huquqiy hodisa sifatida o‘ziga xos jihatlarni ifodalov-chi ma’lum bir belgilarga egadir. Har qanday ijtimoiy xavfli qilmish ham jinoyat hisoblanmaydi, qilmishning jinoyat deb hisoblanishi uchun unda jinoyat qonunida o‘rnatilgan belgilar va jinoyat tarkibi mavjud bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat belgilarini mustahkamlovchi maxsus modda mavjud emas. Shu sababdan jinoyat belgilari jinoyat qonunida jinoyatga berilgan ta’rif asosida aniqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 14-moddasi 1-qismida jinoyatga quyidagicha ta’rif berilgan:“Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.” Jinoyat qonunida berilgan jinoyat tushunchasi *uchta jinoyat-huquqiy institutdan* iborat:

- jinoyat qonuni;
- jinoyat;
- jazo institutlari.

Ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, faqat ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqargan qilmishlargina jinoyat hisoblanmay, balki qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektga real zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli qilmishlar ham jinoyat hisobla-nadi. O‘zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksi 14-moddasi 2-qismida: “Ushbu kodeks bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoliy xavfli qilmish hisoblanadi”,-deyilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, jinoyatga berilgan ta’rifdan kelib chiqib, qilmishda jinoyatning barcha belgilari bo‘lsagina u jinoyat deb topiladi. Agar muayyan zararli oqibatning kelib chiqishida shaxsning aybi bo‘lmasa, bunday qilmish jinoyat hisoblanmaydi. Jinoyat huquqi-da bunday harakatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb aytiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бекариа Ч.О. О преступлениях и наказаниях. М.: 1995, С-373.
2. Таганцев Н. С Русское уголовное право. М.: 1994, Том-2, С-97.
3. Беляев Н.А. Цели наказания и средства их достижения. Л.: 1963, С-25.
4. Стручков Н.А. Уголовное ответственност и ее реализация борбы с претупностью. Саратов, 1978. С.64.
5. *43-modda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuniga asosan "b[1]" band bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda*
6. *43-moddaning "d" bandi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda*
7. *43-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuniga asosan "d[1]" band bilan to'ldirildi — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda*
8. *44-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106*
9. *O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi*
10. *Lex.uz*

WORDLY
KNOWLEDGE